

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

## KO‘HITANG BOTANIK GEOGRAFIK RAYYONIDA TARQALGAN POACEAE BARNHARTOILASI VAKILLARINING UMUMIY TAHLILI

A.J.Ibragimov<sup>1</sup>, M.A.Abdimo‘minova<sup>2</sup>, K.O‘.Atoyev<sup>3</sup>

1. Termiz Davlat universiteti Botanika kafedrasida dotsenti.
2. Termiz Davlat universiteti 1-bosqich magistri.
3. Termiz Davlat universiteti 4-bosqich talabasi. [akram\\_i@bk.ru](mailto:akram_i@bk.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada Ko‘hitang botanik geografik rayonida tarqalgan *Poaceae* Barnhart oilasi vakillarining umumiy tahlili haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Poaceae*, ko‘hitang, oila, flora, tog‘, adir, turkum, tur, qo‘riqxonalar, yaylovlar.

**Abstract:** The article provides information about the general analysis of representatives of the *Poaceae* Barnhart family distributed in the Kohitang botanical geographical region.

**Key words:** *Poaceae*, kohitang, family, flora, mountain, hill, genus, species, reserve, pasture.

**Аннотация:** В статье представлены сведения об общем анализе представителей семейства *Poaceae* Barnhart, распространенных в ботанико-географической области Кохитанг.

**Ключевые слова:** *Poaceae*, кохитанг, семейство, флора, гора, холм, род, вид, заповедник, пастбище.

*Poaceae* Barnhart oilasi Tog‘li O‘rta Osiyo va Eron-Turon floralarida yetakchi o‘rinlarda birinchi o‘ringa ega hamda mazkur floralarni turlarga bo‘yligi jihatidan o‘zaro bog‘lab turadi.

Hozirgi kunda yuzida *Poaceae* ning 759 turkumga oid 11 554 ta turi uchraydigan (<http://www.theplantlist.org/1.1/browse/A/Poaceae/>) *Poaceae* Barnhart oilasi O‘rta Osiyoda 415 dan ortiq, [1] O‘zbekistonda esa 190 dan ortiq turlari tarqalgan [2]. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar va Markaziy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgan namunalarni tahlil qilish natijasida mazkur florada oilaning 301 ta turi uchraydigan ma‘lum bo‘ldi.


Ko‘hitang botanik-geografik rayoni shimoldan Janubi-G‘arbiy Hisor okrugining Tarqopchig‘ay, sharqi va janubidan Surxon-Sherobod, hamda g‘arbidan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh bo‘lib, taksonomik xilma-xillikning yuqoriligi, kamyon, endem hamda relik turlarga bo‘yligi bilan ajralib turadi. [4]

Ko‘hitang botanik-geografik rayonida S.A. Nevskiy [5], F.O. Xasanov [6] va A.J. Ibragimovlar [7] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va gerbariy namunalari olib kelingan. Mazkur gerbariy ma‘lumotlari tarqoq holatda bo‘lib, mazkur tadqiqot hududi florasida to‘g‘risida yaxlit ma‘lumot bermaydi. Ya‘ni, ilmiy izlanishlarga bog‘liq gerbariy namunalari hududning ma‘lum bir qismi yoki hududlari bo‘yicha mavjud. Bu esa mazkur rayon hududida aniq maqsadga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borishga zarurat ortishi hamda ishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

**1-rasm:** Ko‘hitang botanik-geografik rayonini Surxondaryo hududida egallagan o‘rni.



Ko‘hitang botanik-geografik rayonida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida oilaning 48 ta turkumga mansub, 107 ta turi tarqalganligi aniqlandi. Quyidagi 1-jadvalda ko‘hitang botanik-geografik rayonida tarqalgan turkumlar nomi va hu turkumlarga kiruvchi turlar soni keltirilgan. Hududning umumiy florasida *Poaceae* oilasi uchinchi (107 tur yoki 9.28%) o‘rinda turadi. Bu holat Tog‘li O‘rta Osiyo floralari uchun xos xususiyat bo‘lsa, shimoliy hududlarning floralarida tutgan o‘rni ancha salmoqli bo‘ladi. Bu oilaning yetakchilik o‘rni *Bromus* (13), *Poa* (9 tur), *Stipa* (8), *Aegilops* (5) turkumining turlarga boyligi bilan ham asoslanadi.

1-jadval

## KBGR florasining *Poaceae* oilasiga mansub turkumlar va turlar soni

№	Turkumlar	Soni	
		Turlar	% hisobida
1.	<i>Imperata</i>	1	1,07
2.	<i>Tripidium</i>	1	1,07
3.	<i>Bothriochloa</i>	1	1,07
4.	<i>Sorghum</i> Moench	1	1,07
5.	<i>Echinochloa</i>	1	1,07
6.	<i>Setaria</i> P.Beauv	1	1,07
7.	<i>Phalaris</i> L	1	1,07
8.	<i>Stipa</i> L	8	7,47
9.	<i>Achnatherum</i> P.Beauv.	1	1,07
10.	<i>Piptatherum</i> P.Beauv.	5	4,67
11.	<i>Milium</i>	1	1,07
12.	<i>Crypsis</i>	1	1,07
13.	<i>Phleum</i> L	3	2,80
14.	<i>Alopecurus</i>	1	1,07

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

15	<i>Polypogon</i> Desf.	2	1,86
16	<i>Agrostis</i> L.	3	2,80
17	<i>Calamagrostis</i> Adans.	3	2,80
18	<i>Avena</i> L.	3	2,80
19	<i>Cynodon</i> Rich.	1	1,07
20	<i>Melica</i> L.	2	1,86
21	<i>Aeluropus</i> Trin	2	1,86
22	<i>Glyceria</i> R.Br.	1	1,07
23	<i>Puccinellia</i>	1	1,07
24	<i>Vulpia</i> C.C. Gmel.	2	1,86
25	<i>Bromus</i> L.	13	12,14
26	<i>Trachynia</i>	1	1,07
27	<i>Lolium</i> L.	3	2,80
28	<i>Henrardia</i>	1	1,07
29	<i>Pseudoroegneria</i>	1	1,07
30	<i>Eremopyrum</i> (Ledeb.) Jaub. & Spach	3	2,80
31	<i>Secale</i> L.	1	1,07
32	<i>Aegilops</i> L.	5	4,67
33	<i>Heteranthelium</i> Hochst. ex Jaub. & Spach	1	1,07
34	<i>Taeniatherum</i> Nevski	1	1,07
35	<i>Hordeum</i> L.	4	3,73
36	<i>Crithopsis</i> (Schult.) Roshev.	1	1,07
37	<i>Thinopyrum</i> Á.Löve	1	1,07
38	<i>Elymus</i> L.	1	1,07
39	<i>Leymus</i> Hochst.	1	1,07
40	<i>Enneapogon</i> Desv. ex P.Beauv.	1	1,07
41	<i>Phragmites</i> Trin. ex Steud.	1	1,07
42	<i>Eragrostis</i> Wolf	3	2,80
43	<i>Festuca</i> Tourn. ex L.	3	2,80
44	<i>Poa</i> L.	9	8,41
45	<i>Catabrosella</i> (M.Bieb.) Tzvelev	1	1,07
46	<i>Moorochloa</i> (Sm.) Veldkamp	1	1,07
47	<i>Rostraria</i> (L.) Tzvelev	1	1,07
48	<i>Elymus</i> L.	1	1,07
<b>Jami</b>		<b>107</b>	<b>100</b>

**Turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi.** Tog‘li hududlarda o‘simlik turlarining xilma-xilligi flora egallagan maydonning kattaligidan tashqari, dengiz sathiga nisbatan joylashgan o‘rni, tik mintaqalarning soni va hududning geomorfologik tuzilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, tog‘li floralarning tahlili albatta turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishini o‘rganishni ham talab etadi.

Surxon qo‘riqxonasi florasining tik mintaqalar bo‘yicha tahlili Q.Z. Zokirov [7] taklif etgan tasnif asosida amalga oshirildi.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Surxon qo‘riqxonasi hududi cho‘l mintaqasi ta’siri doirasiga kirmaydi. Qo‘riqxonaning quyi chegarasi dengiz sathidan 850 m balandlikdan, ya’ni adir mintaqasidan boshlangan va bu geomorfologik bosqich qo‘riqxonada d.s. 850-1200 m balandliklarni qamrab oladi. Tog‘ mintaqasining umumiy chegarasi d.s. 1200-2800 m bo‘lsa, yaylov 2800-3137 m balandliklarni o‘z ichiga oladi. Ko‘hitang tizmasida turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi bir xilda emas.

Ekologik diapozoni keng turlar adir-tog‘-yaylov mintaqalarini egallaydi. (*Anisantha sericea* (Drob.) Nevski (= *Bromus sericeus*), *Festuca valesiaca* Schleich., *Nevskiella gracillima* (Bunge) V. Krecz. et Vved. (= *Bromus gracillimus* Bge.) va h.z.) ularning umumiy soni 9 turdan (8,41%) iborat. Adir va tog‘ mintaqalarini bog‘lagan turlar 29 tadan iborat (*Achnatherum caragana* (Trin.) Nevski, *Bromus danthoniae* Trin. , *Festuca arundinacea* Schreb.) va ular floraning 28,1% tashkil etishi aniqlandi. Tog‘ va undan balandda joylashgan yaylov mintaqasi uchun xos bo‘lgan o‘simliklar (*Poabactriana* Roshev) flora tarkibida 5 ta tur (1,86%) bilan ishtirok etishadi.

Turlarning tarqalishi bo‘yicha ikkinchi o‘rinni adir mintaqasi egallaydi. Qo‘riqxonada hududida *Poaceae* oilasiga mansub adir mintaqasi bilan bog‘liq holda uchraydigan o‘simliklar 22 turni (20,56%) tashkil etadi. Faqat adirning o‘zida 16 tur (14,9%) uchraydi. Adir uchun xos bo‘lgan turlar qatoriga *Aegilops crassa* Boiss., *Avena fatua* L., *Eremopyrum buonapartis* (Spreng.) Nevski va shu kabilar kiradi.

2-jadval

### **Poaceae oilasiga mansub turlarning tik mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi**

№	Mintaqalar	Turlar soni	Florada % hisobida
1.	Adir (dengizsathidan 850-1200 m )	22	20,56
2.	faqat adirda	16	14,9
3.	Tog‘ (d. s. 1200-2800 m)	14	13,08
4.	faqat tog‘da	6	5,61
5.	Yaylov (d. s. 2800-3137 m)	5	1,86
6.	faqat yaylovda	2	1,61
7.	Umumiy turlar:	107	100
8.	shu jumladan		
9.	Adir-tog‘ uchun (d. s. 850-2800 m)	29	28,1
10.	Tog‘-yaylov uchun (d. s. 1200-3137 m)	4	3,73

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

11.	Adir-tog'-yaylov uchun (d. s. 850-3137 m)	9	8,41
-----	--	---	------

Qo'riqxonada hududidagi yaylov mintaqasi katta maydonlar bilan ifodalanmagan bo'lsa ham *Poaceae* oilasiga mansub flora tarkibida bu mintaqaga uchun xos bo'lgan turlar ham uchraydi. Ushbu mintaqaga tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan o'simlik turlarining umumiy soni 5 ta bo'lib, umumiy floraning 1,86% ni tashkil qiladi. Faqat yaylov mintaqasida uchraydigan o'simliklar juda kam bo'lib (2 tur yoki 1,61%), bu holat o'rganilgan hududning relef xususiyatlari, geomorfologik tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Floramiz tarkibida yaylov uchun xos turlarga *Poa bactriana* Roshev va boshqalar kiradi.

Ko'hitang tizmasi o'simliklarining biomorf turlarining xilma-xilligi tizmadagi muhit omillarining xilma-xilligi natijasidir. Turlarning tik mintaqalar bo'yicha taqsimlanishida, tog'li hududlardagi o'simlik turlarining xilma-xilligi nafaqat o'simlik dunyosi qoplagan hududning kattaligiga, balki dengiz sathiga nisbatan joylashishiga, tik yerlarning soniga va yerning geomorfologik tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tog'li florasini tahlil qilish, albatta, tik mintaqalarda turlarning tarqalishini o'rganishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tog'li O'rta Osiyo provintsiyasining lokal floralari, jumladan Tiyon-Shon va Pomir-Oloy floralari *Poaceae* Barnhart oilasi turlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa oilaga mansub bo'lgan turlarning yangi populyatsiyalarini o'rganish muhimligini ko'rsatadi. Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida Ko'hitang botanik geografik rayonida *Poaceae* Barnhart oilasiga mansub 48 turkumga oid 107 ta turi o'sishi ma'lum bo'ldi va ularning aksariyatidan gerbariy namunalari yig'ildi.

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Определитель растений Средней Азии. Т.1. Ташкент Фан, 1968.
2. Flora Uzbekistana. V 3-i t. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1955.
3. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-5/1.Б-62 Ибрагимов А.Ж., Абдимўминова М.А. “Сурхон Давлат кўриқхонаси флорасининг *Roaseae* оиласига мансуб ўсимликлари”.
4. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-7/1.Б -52 Ибрагимов А.Ж., Каримов Б.Қ., Атоев К.Ў., Пардаев А.С., Тажетдинова Д.М. TASH фондидаги Кўхитанг ботаник-географик районида оид гербарий намуналарининг таҳлили (*Asteraceae* оиласи мисолида).
5. *Невский* С.А. Материалы к флоре *Кугитанга* и его предгорий // Труды БИН АН СССР. –1937. Вып. 4.–С. 199-346.
6. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника (хребет Кугитанг): Автореф. дис...канд. биол. наук. – Ташкент, 2010.–22 с.
7. Ибрагимов А.Ж. Эндемизм флоры хребта Кугитанг // Биоразнообразия: проблемы и перспективы сохранения: Материалы межд. науч. конф. 13-16 мая 2008 г. – Пенза, 2008. – С. 217-219.

## **Foydalangan internet saytlari**

1. <https://powo.science.kew.org/>
2. <https://www.plantarium.ru/>
3. <http://www.theplantlist.org/>
4. [https://rusneb.ru/catalog/000200\\_000018\\_rc\\_4744780/](https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_rc_4744780/)